

O'ZBEK↔INGLIZ SINONIMLARI BAZASINING TUZILISHI VA TARKIBI

Salomov Abbos Alixon o'g'li
ToshDO'TAU

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: **Abjalova Manzura Abdurashetovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik ta'minot nima ekanligi, o'zbek tilida sinonimlarning o'rni, ingliz tilidagi sinonimlarning ahamiyati ularning farqlari, o'zbek↔ingliz sinonimlari bazasini yaratish va uning tuzilishi hamda tarkibi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *sinonimlar, lingvistik ta'minot, lingvistik baza, antonimlar, mashina tarjimas, avtomataik tarjimon dasturlar.*

Annotation. In the article what a linguistic database is, the role of synonyms in Uzbek language, the significance of synonyms in English language and the differences between them, creating the database of Uzbek↔English synonyms and its construction and structure are discussed.

Keywords: *synonyms, linguistic support, linguistic database, antonyms, Machine translation, automatic translation programs.*

Аннотация. В статье обсуждаются, что такое лингвистическая база данных, роль синонимов в узбекском языке, значение синонимов в английском языке и различия между ними, создание базы данных узбекско-английских синонимов, ее построение и структура.

Ключевые слова: *синонимы, лингвистическое обеспечение, лингвистическая база данных, антонимы, Машинный перевод, программы автоматического перевода.*

Kirish. Lingvistik baza yaratish har bir tilda bugungi kunda olib borilayotgan ishlardan biri o'laroq, zamonaviy soha hisoblangan Kompyuter lingvistikasining qaysidir ma'noda bir qismidir. Chunki lingvistik baza websaytlar va turli xil dasturlarning ishlashiga xizmat qiladi. Qolaversa, bir tilning rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasi ham aynan tabiiy tilni rivojlantirishga qaratilgan soha hisoblanadi.

Bugunga qadar kompyuter lingvistikasida butun dunyo bo'ylab ko'plab yutuqlarga erishildi. Buning natijasida turli til korpuslari, online ma'lumotlar bazalari, til o'rganishga xizmat qiluvchi dasturlar, web sahifalar va avtomatik tarjimon dasturlar yaratildi. Albatta, bu ishlarning hammasining zahirida tilning lingvistik bazalari yotadi.

Lingvistik dasturiy ta'minot (inglizchadan lingware = linguistic + software) - tabiiy tilda audio ma'lumotlar, chizmalar (OCR) va matnlarni tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash va qidirishni ta'minlaydigan kompyuter dasturlari va ma'lumotlari.

Asosiy qism. O'zbek–ingliz sinonimlari bazasini yaratishda qilinadigan ishlarning eng avvalida o'zbek tilidagi mavjud sinonimlarni jamlash va ularni boyitish lozim. Bu borada Azim Hojiyevning 1996-yilda ishlab chiqilgan “O'zbek tilining sinonimlari” kitobidan foydalanib ularni jadval asosida shakllantiriladi. Keyingi o'rinda tildagi har bir sinonimik qatorning eng ko'p qo'llaniladigan va uslubiy betaraf bo'lgan dominantasi aniqlanadi. Qolgan sinonim so'zlarning barchasi qaysi uslubga aloqadorligi tekshirilib jadval shakllantiriladi. Keying o'rinda ushbu jadvaldan joy olgan sinonim so'zlarning hammasi tarixiy yoki tarixiy so'z emasligiga ko'ra farqlab chiqiladi. Bunda ushbu so'zlarning bugungi kunda ham qo'llanilishi va qo'llanilmasligiga ko'ra guruhlash ma'qul deb topildi.

Sinonimik jadval (Автосохраненный).xlsx									
B	C	D	E	F	G	H	I	J	K
Sinonimik qator	Izohi	Dominantasi	Ilmiy	Badiiy	So'zlashuv	Rasmiy-idoraviy	Publitsistik	Eskirgan	Eskirmagan
a'mol, amal	Qilingan yoki qilinadigan ish(lar), amal.	amal		amal		a'mol		a'mol	amal
buyuk, ulug', a'zam, azim	Ko'rinish, tuzilish e'tibori bilan g'oyat katta, ulkan.	azim		ulug', buyuk, a'zam	azim				ulug', buyuk, azim, a'zam
a'zo, qism, uzv	Odam yoki hayvon organizmining muayyan bir vazifani bajaruvchi qismi.	a'zo	a'zo	uzv	qism			uzv	a'zo, qism
ilalabad, toabad, mangu, umrbod, abadiy	Doimiy, abadiy, mangu, o'lmas	abadiy		abadiy, mangu, umrbod, toabad, ilalabad				ilalabad, toabad	abadiy, mangu, umrbod
abadiylashtirmoq, manguilashtirmoq	Umrini cheksiz uzaytirmoq	abadiylashtirmoq		manguilashtirmoq, abadiylashtirmoq					abadiylashtirmoq, manguilashtirmoq
ardoqlamoq, papalamoq, pupalamoq, ehtiyotlamoq, ehtiyot qilmoq, avaylamoq, ayamoq	Yomon ta'sirdan, salbiy hodisadan himoya qilmoq.	avaylamoq	ehtiyot qilmoq	ardoqlamoq	ehtiyotlamoq, papalamoq, pupalamoq, ayamoq				ardoqlamoq, papalamoq, pupalamoq, ehtiyotlamoq, ehtiyot qilmoq, avaylamoq, ayamoq
abas, foydasiz, befoйда, behuda	Befoyda bo'lgan, hech nafi yo'q	befoyda		abas, behuda	befoyda, foydasiz			abas	foydasiiz, befoйда, behuda
abdol, xudojo'y, dindor	e'tiqodiga ega dindor	xudojo'y		abdol	xudojobefoyda, foydasiz	dindor		abdol	dindor, xudojo'y
abgor, nochor, xarob	yomon ahvolda	xarob		nochor, xarob	abgor				abgor, nochor, xarob
abjaq bo'lmoq, majaq				abjaq bo'lmoq					abjaq bo'lmoq, majaq

1-rasm. O'zbek tili sinonimlari jadvali.

O'zbek va ingliz tillarini bog'lashda rus tili asosiy vosita hisoblanadi. Negaki hozircha mukammal darajadagi o'zbekcha-inglizcha lug'atlar yaratilmagan. Shunga ko'ra dastlab tarjimada o'zbekcha-ruscha, so'ngra ruscha-inglizcha lug'atlardan foydalanildi.

Ko'rinadiki, har bir jadval kompyuter dasturi uchun ma'lumotlar bazasi hisoblangani holda bir-biri uchun ham axborot banki vazifasini o'taydi. Demak, kompyuter dasturi uchun lingvistik ta'minot yaratishda ham uzviylikka, sistemalilikka qat'iy rioya qilinadi.

Keyingi o'rinda ingliz tilida uchraydigan sinonimlar yig'ib olindi. Bir vatqning o'zida sinonimlar bilan birgalikda antonimlar ham yig'ib olinadi. Bunda ishning tushunarliroq bo'lishi ko'zda tutiladi.

SYNONYMS AND ANTONYMS

1. AWKWARD

Syn: clumsy, ungainly, ponderous, rough

Ant: clever, dexterous, apt, skilful

2. APARENT

Syn: evident, obvious, perceptible, distinct

Ant: masked, obscure, indistinct, doubtful

3. ALLURE

Syn: entice, fascinate, tempt, seduce

Ant: repulse, repel, deter, distaste

4. ABORTIVE

Syn: vain, useless, fruitless, unproductive

Ant: effectual, productive, successful, progressive

5. ABOMINABLE

Syn: odious, detestable, repugnant, aversion

Ant: likeable, pleasant, affectionate, enjoyable

2-rasm. Ingliz tili sinonimlar va antonimlar ro'yxati.

Ingliz o'zbek sinonimlarini muvofiqlashtirib chiqish jarayonida bir nechta muammolar uchrashi mumkin. Ulardan biri sinonim so'zlarning sonidir. Aytaylik bir tilda 5 ta, ikkinchi tilda 7 ta sinonim uchrasa, ular qanday muvofiqlashtiriladi? Bu savolga filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc) Manzura Abjalova Abdurashetovnaning fikrlariga ko'ra aynan tarjimasi chiqmagan so'zlar uchun dominanta so'zni muvofiqlashtirish kerak.

Masalan, “antikvar” so'zining o'zbek tilidagi sinonimlari quyidagilardir:


antikvar, eski, qadimiy, tarixga oid

Ingliz tilida esa bu so'zning quyidagi shakllari mavjud:

antique, ancient, old fashioned, primitive, of past

Ushbu sinonim so'zlarning soni bir xil emas. O'zbek tilida 4 ta, ingliz tilida 5 ta sinonim mavjud. “***Antique***” so'zi “***antikvar***” so'zi bilan bir ma'noga ega. “***Ancient***” va “***primitive***” so'zlari esa “***qadimiy***” so'ziga sinonim bo'la oladi. “***Old fashioned***” so'zi “***eski***”, “***of past***” so'zi esa “***tarixga oid***” so'zi bilan tarjimada semantik muvofiqlikka ega.

Bundan tashqari, sinonimlar o'z tarjimasi bilan muvofiqlashtirib chiqilgandan keyin ularning graduonimiyasi ham yaratilishi ko'zda tutilgan, ya'ni sinonimlar o'zlarining ma'no darajalariga ko'ra tartiblab chiqiladi. Bunda so'zlarning ijobiy yoki salbiy ma'no anglatishi yoki kuchsiz-kuchli ma'noga egaligiga ko'ra quyidagicha tartiblanadi:



3-rasm. Muvofiqlashtirilgan o'zbek↔ingliz sinonimlarining graduonimiyasi.

Xulosa. Ushbu sinonimlar bazasida faqat o'zbek tilidagi sinonimik qatorlar uslubiga ko'ra tarixiy eskirgan yoki eskirmaganiga ko'ra tahlilga ega. Shuningdek har bir sinonimik qator uchun umumiy qisqacha izoh ham berib o'tilgan. Umuman olganda, o'zbek va ingliz tillarida mavjud sinonimlarning muvofiqlashtirilib va darajalab chiqilishi katta ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu ish Mashina tarjimasini va avtomatik tarjimon dasturlar uchun muhim lingvistik ta'minot bo'lib xizmat qiladi. Tarjimadagi so'z tanlash bilan bog'liq muammolar ham o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b. ISBN 978-9943-6939-0-6
2. Abjalova M.A. O'zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3.
3. Abjalova M., Uzakova M. Software and Linguistic Features of Uzbek Synonymizer. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. Istanbul – Turkey. – pp. 177-181.
4. Abjalova M.A. O'zbek tilidagi matnlarni tahrir qilishda uslub masalasi // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, – Toshkent, 2013. – №2. – B. 140-145.
5. Abjalova M.A. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка. // Родные языки и культуры в современном изменяющемся мире. – Тува, 2022. – 79-84 с.
6. Abjalova M., Bozorov S. Kvazisinonimlar nutqiy imkoniyat sifatida. // Актуальные вызовы современной науки, LX Международная научная конференция 26-27 июня 2021 г. – С. 123-126.
7. Bergelson M.B. Boguslavskaya O. Yu. Gaft R.I. Intellectual tizimlarda til faoliyatini modellashtirish.
8. Hojiyev A. O'zbek tilining sinonimlari. 1996. Toshkent. – 374 b.
9. https://www.researchgate.net/publication/2614910_The_Creation_Distribution_And_Use_Of_Linguistic_Data_The_Case_Of_The_Linguistic_Data_Consortium
10. <https://www.thesaurus.com/browse/database>
<https://learn.microsoft.com/en-us/sql/relational-databases/synonyms/create-synonyms?view=sql-server-ver16>